



# Iste'mol kayfiyati sharhi

## 2026-YIL I CHORAK

- Daromad subindeksi
- Xarajat subindeksi
- Kredit subindeksi
- Jamg'arish subindeksi



Ushbu sharhda respondentlarning daromadlari va iste'mol xarajatlari tarkibi, pul-mablag'larini jamg'arishga bo'lgan moyilligi, kelgusidagi xarajatlari, shuningdek, kreditga bo'lgan ehtiyojlari tahlil qilingan.

---

## Rezyume

So‘rovnoma natijalari<sup>1</sup> 2026 yilning I choragida aholining iste‘mol kayfiyatida ijobiy tendensiyalar saqlanib qolayotganini ko‘rsatmoqda.

Daromadlar oshishiga oid kutilmalarda o‘shish dinamikasini namoyon etayotgani aholining moliyaviy holati yaxshilanishiga bo‘lgan ishonchi yuqoriligidan dalolat beradi.

Xarajatlarga oid kutilmalarning yuqori darajada shakllanishi iqtisodiy faollik hamda tovar va xizmatlar xaridiga bo‘lgan talabning barqaror shakllanayotganini ko‘rsatmoqda.

Aholining jamg‘arishga bo‘lgan moyilligida ijobiy dinamika kuzatilib, avvalgi chorakka nisbatan o‘shish qayd etildi. Bu holat aholining daromadlari barqaror o‘shishi fonida moliyaviy holatlarida ijobiy tendensiya shakllangani bilan izohlanishi mumkin.

Kreditga bo‘lgan talabning 2025-yilning III choragidan buyon o‘shish tendensiyasini davom etayotgani iste‘mol faolligi yuqoriligni bildiradi.

Umuman olganda 2026-yil I choragida aholining iste‘mol kayfiyati barqaror shakllanib, kelgusi istiqbolda xarid qobiliyati yaxshilanishi bo‘yicha ijobiy kutilmalar saqlanib qolingan.

---

<sup>1</sup> 2026-yil aprel oyida aholining iste‘mol kayfiyatini baholash maqsadida o‘tkazilgan so‘rovlarda 4 100 ga yaqin respondentlar ishtirok etdi.

## Daromad subindeksi


### **Aholi daromadlarining o'sishiga oid ijobiy tendensiyalar davom etmoqda.**

Daromadlar subindeksi 2026-yil I choragida 72,8 bandni tashkil etib, o'sish tendensiyasini davom ettirdi. Xususan, indeksda avvalgi chorakka nisbatan 0,3 bandlik, 2024-yilning mos davriga nisbatan esa 1,5 bandlik ijobiy farq shakllandi (1-2-rasmlar). Bunda, aholining real daromadlari barqaror o'sishi, tashqi transchegaraviy pul o'tkazmalari hajmining ortishi mazkur ko'rsatkichning ijobiy shakllanishiga qo'shimcha omil bo'lib xizmat qilmoqda.


So'rovnoma ishtirokchilarining asosiy qismi, ya'ni 68 foizi daromadlarning oshishini (2025-yilning IV choragida 67 foiz), 25 foizi esa barqaror saqlanishini kutmoqda. Daromadlari pasayishini kutayotganlar ulushi 7 foizgacha qisqarib, mazkur ko'rsatkich 2023-yilning IV choragida qayd etilgan minimal darajaga tushdi (3-rasm).

2026-yilning I choragida aholining barcha daromad guruhlari kesimida daromadlar o'sishi bo'yicha ijobiy kutilmalar barqaror yuqori darajada (62-78 foiz) shakllandi. Bunda, 2025-yilning IV choragiga nisbatan daromadlari oshishini kutayotgan respondentlar ulushi 7-10 mln so'mlik daromadga ega qatlamdan tashqari barcha guruhlarda ijobiy dinamikani qayd etdi.

**1-rasm. Daromad subindeksi (band)**




**2-rasm. Daromad subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz band)**




Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

**3-rasm. Daromadlari o'zgarishi kutilmalari bo'yicha javoblar taqsimoti (ulushi, foizda)**



**4-rasm. Daromadlar kesimda javoblar taqsimoti (ulushi, foizda)**




Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Daromadlari 20 mln so'mdan yuqori bo'lganlarda ijobiy kutilmalar shakllanmoqda (77 foiz; 2025-yilning IV choragidagi 72 foizga nisbatan). Daromadlari o'zgarmasligini kutayotganlar asosan, 3-5 mln so'm va 7-10 mln so'mlik daromad segmentlariga to'g'ri keldi. Ayni paytda, daromadlar pasayishini kutayotganlar ulushining ortishi 10-15 mln so'm daromadga ega guruhda qayd etildi.

Shu bilan birga, 2025-yilning so'nggi choragida daromadlari pasayganligini bildirgan ayrim respondentlar guruhlarida joriy yilning I choragida ijobiy tendensiya kuzatildi. Xususan, daromadlar pasayishini qayd etganlar ulushining qisqarishi 3-5 mln, 5-7 mln, 15-20 mln so'mlik hamda 20 mln so'mdan yuqori bo'lgan daromad segmentlarida qayd etildi (4-rasm).

**5-rasm. Respondentlarning daromad manbalari (ulushi, foizda)**



**6-rasm. Faoliyat sohalari kesimida daromadlari o'zgarishi bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)**

Sohalar	ko'payadi	o'zgarishsiz qoladi	kamayadi
maishiy xizmat	78	17	5
kafe-restoran	78	15	7
qishloq xo'jaligi	76	16	8
turizm	75	21	4
ishlab chiqarish	74	20	6
qurilish	71	22	7
kommunal xizmat	71	20	9
savdo	70	23	8
fan-ta'lim	69	25	6
davlat boshqaruvi	69	25	6
tashish xizmati	69	22	9
tibbiyot	67	26	7
boshqa	66	24	9
AT va OAV	63	25	12
bank va moliya	63	30	7

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Respondentlarning 66 foizi (2025-yil IV chorakda 67 foiz) daromad manbai sifatida rasmiy ish haqini qayd etgan. Shu bilan birga, tomorqa, tadbirkorlik va savdo hamda kunlik daromadli ishlar, mulk ijarasi va pul o'tkazmalari hisobiga daromad topuvchilar ulushi 2025-yilning so'nggi choragiga nisbatan biroz oshgan bo'lsa, qolgan daromad manbalari bo'yicha o'zgarish kuzatilmadi (5-rasm).

Maishiy xizmat, kafe-restoran, qishloq xo'jaligi, turizm va ishlab chiqarish sohalarida aholining daromadlar oshishiga bo'lgan ishonchi mustahkamlangani kuzatildi. Mazkur holat xizmatlar bozorida barqaror talab va turizm salohiyatining kengayishi natijasida iqtisodiy faollik yaxshilangani bilan izohlanadi.


Bank-moliya, axborot texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari hamda tibbiyot sohalarida daromadlar oshishi bo'yicha kutilmalar nisbatan mo'tadil darajada saqlanib qolmoqda.

### Xarajat subindeksi


**Respondentlarning kelgusidagi xarajatlari bo'yicha kutilmalarida ijobiy kayfiyat saqlanib qoldi.**

Mazkur davrda xarajat subindeksi 0,3 foiz bandga oshib, 78,1 bandga etdi. Ushbu subindeks 2025-yilning mos davriga nisbatan 0,2 bandga yuqori bo'ldi (7-8-rasmlar).

7-rasm. Xarajat subindeksi (band)



8-rasm. Xarajat subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz band)



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.


Kelgusi davr uchun xarajatlarning oshishini qayd etgan respondentlar ulushi 77 foizni (2025-yil mos davrida 78 foiz) tashkil etgan bo'lsa, xarajatlarning o'zgarishsiz qolishini va kamayishini bildirganlar ulushi 2025-yilning so'nggi choragiga nisbatan biroz pasaydi (9-rasm).

Eng yuqori va eng quyi daromad guruhlariga mansub respondentlar kelgusi oylarda xarajatlar qisqarishini qayd etgan bo'lsa, o'rta daromadli (5-7 mln so'mgacha va 7-10 mln so'mgacha) hamda nisbatan yuqori daromadli (10-15 mln so'mgacha va 15-20 mln so'mgacha) aholi qatlamlari kelgusida xarajatlarning oshishini kutmoqda (10-rasm).


Barcha daromad guruhlarida uy-joy ta'miri ustuvor yo'nalish sifatida saqlanib qolgan bo'lsa, ta'lim va davolanish uchun xarajatlar ham yuqori ulushni tashkil etgan. Nisbatan pastroq daromadlilar (5 mln so'mgacha) xarajatlarini asosan, uy-joy ta'miri, ta'lim va kundalik ehtiyojlarga yo'naltirgan bo'lsa, o'rta daromadli guruhlarda (5-10 mln so'm) ta'lim, sayohat, avtomobil hamda to'y xarajatlariga yo'naltirishni rejalashtirmoqdalar.

Yuqori daromadli guruhlarda xarajatlar tarkibida avtomobil, sayohat, uy-joy xaridi va maishiy texnika kabi yirik xaridlar ulushi yuqori shakllanmoqda. Xususan, 15-20 mln so'm va undan yuqori daromad guruhlarida sayohat, uy-joy xaridi va avtomobil xaridlari ustuvorlik qilmoqda. Shuningdek, mazkur guruhlarda davolanish, maishiy texnika va mebel xaridlariga talab ham nisbatan yuqoriroq bo'lib qolmoqda (11-rasm).

**9-rasm. Kelgusi xarajatlarning o'zgarishi bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)**



**10-rasm. Daromadlar kesimida xarajatlarning o'zgarishi bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)**



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

**11-rasm. Xarajatlar bo'yicha kutilmalar, aholi daromadlar kesimida (ulushi, foizda)**

Kelgusi xarajatlar	uy-joy ta'miri	ta'lim	boshqalar	davolanish	xarid qilmaymiz	to'y	avtomobil	sayohat	uy-joy xaridi	maishiy texnika	oilaviy bayram	mebellar xaridi	elektron qurilma
2 mln.so'mgacha	24	16	12	12	18	6	4	6	4	4	4	3	2
2-3 mln.so'm	26	20	15	13	11	7	6	6	7	6	4	4	4
3-5 mln.so'm	30	23	12	11	12	11	9	7	7	8	6	5	3
5-7 mln.so'm	29	21	12	11	11	11	9	10	9	6	6	6	3
7-10 mln.so'm	29	17	13	9	12	12	13	11	9	7	7	8	3
10-15 mln.so'm	30	20	18	14	13	11	14	13	13	8	8	7	7
15-20 mln.so'm	29	16	17	16	6	18	14	19	17	12	11	10	4
20-30 mln.so'm	23	17	11	9	9	12	18	14	14	9	11	9	3
30 mln.so'mdan yuqori	24	11	4	13	11	11	9	11	9	11	9	11	9

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Respondentlar orasida yoshlar (30 yoshgacha) asosan, ta'lim va uy-joy ta'miri bilan bog'liq xarajatlarga ko'proq mablag' sarflashlarini bildirgan. Shuningdek, ushbu yosh guruhi vakillari tomonidan sayohat, to'y va avtomobil xaridlariga bo'lgan yuqori talabi kuzatilmoqda. O'rta yoshlilar (31-50 yosh) esa ko'proq uy-joy xaridi va ta'miri, davolanish, ta'lim hamda avtomobil sotib olish bilan bog'liq xarajatlarni rejalashtirmoqda.


Shu bilan birga, 51 yoshdan yuqori aholi qatlamlarida uy-joy ta'miri va sog'liqni tiklash bilan bog'liq xarajatlar ustuvor bo'lib, to'y marosimlari bilan bog'liq xarajatlar ulushi ham nisbatan yuqori darajada saqlanib qolmoqda (12-rasm).

**12-rasm. Yosh kesimida xarajatlar tarkibi (ulushi, foizda)**

Yosh chegarasi	uy-joy ta'miri	ta'lim	boshqalar	xarid qilmaymiz	davolanish	sayohat	to'y	avtomobil	uy-joy xaridi	oilaviy bayram	maishiy texnika	mebellar xaridi	elektron qurilma
18 yoshdan kichik	16	25	14	18	5	13	5	6	5	9	3	1	4
18-30 yoshgacha	23	23	13	12	9	12	15	13	11	7	8	7	5
31-40 yoshgacha	30	16	14	12	13	8	6	9	8	5	8	5	3
41-50 yoshgacha	33	23	13	12	14	7	10	7	7	6	6	6	2
51-60 yoshgacha	35	10	14	10	16	10	11	5	9	7	5	6	0
60 yoshdan katta	38	10	11	11	17	6	10	5	5	2	3	3	2

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

**13-rasm. Yirik xaridlar/xarajatlar o'zgarishi (ulushi, foizda)**



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.


Umuman olganda, respondentlar kelgusi oylarda uy-joy ta'miri, sayohat, to'y, uy-joy xaridi hamda maishiy texnika bilan bog'liq xarajatlari ko'payishini ma'lum qilgan (13-rasm).

**Kredit subindeksi**


**Kredit subindeksida biroz o'sish kuzatilgan.**

2026-yilning I choragi yakunlariga ko'ra, kredit subindeksi o'tgan chorakdagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 bandga oshib, 65,5 band darajasida shakllandi (14-15-rasmlar).

**14-rasm. Kredit subindeksi (band)**




**15-rasm. Kredit subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz band)**




Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

**16-rasm. Kelgusidagi kreditga bo'lgan talab o'zgarishi bo'yicha kutilmalar taqsimoti (ulushi, foizda)**



**17-rasm. Daromadlar darajasi kesimida kreditga bo'lgan talab (ulushi, foizda)**



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

Kelgusida kredit olishga ehtiyoji borlar ulushi (56 foiz) ortgan (avvalgi chorakda 54 foiz). Bunda, 7 mln so'mgacha daromad oluvchi guruhda kreditga talab o'sishi mumkin. Nisbatan yuqori daromadlilar orasida (10-15 mln so'm va 20 mln so'mdan yuqori) kelgusida kreditga talabning pasayishi tendensiyasi davom etmoqda (17-rasm).

Respondentlar tomonidan kredit mablag'laridan kelgusi davrda uy-joy ta'miri, ta'lim, to'y, avtomobil xaridi hamda davolanish bilan bog'liq xarajatlar ahamiyati o'zgarimasdan, davomiy sarflar sifatida qaralmoqda (18-rasm).

**18-rasm. Kelgusida kreditga va xaridlarga bo'lgan talabning shakllanishi (ulushi, foizda)**

	uy-joy ta'miri	ta'lim	boshqalar	davolanish	xarid qilmaymiz	to'y	avtomobil	sayohat	uy-joy xaridi	maishiy texnika	oilaviy bayram	mebellar xaridi	elektron qurilma
oshadi	31	21	11	11	7	12	11	10	11	7	5	6	4
biroz oshadi	27	20	14	13	9	13	14	12	12	10	7	8	5
o'zgarishsiz qoladi	27	19	14	12	13	9	9	9	7	6	8	6	3
biroz kamayadi	28	19	15	13	8	10	10	8	9	6	6	8	6
kamayadi	30	21	14	10	10	10	11	12	8	7	6	5	3
kreditga ehtiyoj yo'q	27	18	14	11	19	9	7	8	6	6	5	5	2

Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

## Jamg'arish subindeksi


### **Jamg'arishga moyillikda barqaror o'sish kuzatildi.**

Joriy yilning I choragida jamg'arish subindeksi 70,6 band darajasida qayd etilib, o'sish trendini davom ettirdi. Subindeks o'tgan chorakka nisbatan 1,7 band, o'tgan yilning tegishli davriga taqqoslanganda esa 1,2 bandlik ijobiy farq bilan shakllandi. Bu aholining mablag'larni jamg'arishga bo'lgan moyilligi ortib borayotganidan dalolat beradi (19-20-rasmlar).


Ishtirokchilarning 65,8 foizi (2025-yil IV chorakka nisbatan 3,2 foiz bandga ko'proq) kelgusida jamg'armalari oshishini kutayotgan bo'lsa, jamg'armalari hajmi o'zgarmasligini ta'kidlaganlar ulushi 2025-yil IV chorakka nisbatan 1,9 foiz bandga pasayib, 22,3 foizni tashkil etdi. Jamg'armalarning kamayishini kutayotganlar ulushi esa qisqarishda davom etib, 11,9 foizni (avvalgi chorakda 13,2 foiz) tashkil etdi (21-rasm).

Kelgusi davr uchun jamg'armalarining 1-3 oyga hamda 6 oydan ortiq muddatga yetishini ta'kidlagan respondentlar ulushi 2025-yilning IV choragiga nisbatan biroz oshdi. Biroq, qisqa (1 oygacha) va o'rta muddatlar (3-6 oygacha) bo'yicha respondentlar ulushi pasayish dinamikasini namoyon etdi. Shuningdek, jamg'armasi mavjud emasligini qayd etganlar ulushi ham qisqarib, 40,1 foizni tashkil etdi (22-rasm).

**19-rasm. Jamg'arish subindeksi (band)**




**20-rasm. Jamg'arish subindeksi o'zgarishi (o'tgan chorakka nisbatan, foiz band)**




Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

**21-rasm. Respondentlarning jamg'armalari o'zgarishi bo'yicha kutilmalari (ulushi, foizda)**



**22-rasm. Jamg'armaning yetarlilik darajasi bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)**




Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.


Joriy yilning dastlabki choragida ham ishtirokchilarning aksariyati (58,0 foiz, 2025-yil IV chorakda 55,6 foiz) moliyaviy holatlarida ijobiy tendensiyani sezgan. Moliyaviy holatda o'zgarish sezmagani aholi ulushi 0,8 foiz bandga qisqarib, 32,4 foizni tashkil etgan. Moliyaviy ahvoli salbiy tomonga o'zgarganini ta'kidlagan aholi ulushi yanada pasayib, 9,7 foizni tashkil etdi (23-rasm).

Aholining jamg'arish xulq-atvorida ijobiy o'zgarishlar davom etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, bank depozitlari hajmining yuqori sur'atlarda o'sishida ham aks etmoqda.

**23-rasm. Respondentlarning moliyaviy holati o'zgarishi (ulushi, foizda)**



**24-rasm. Aholi muddatli depozitlari qoldig'i o'sishi (trln. so'm, yillik foizda)**



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.


Xususan, joriy yilning I choragida milliy valyutadagi muddatli omonatlar qoldig'ida yillik qariyb 31,1 foizlik o'sish qayd etildi. Mazkur holat moliyaviy instrumentlarning kengayib borayotgani sharoitida aholining jamg'arishga bo'lgan moyilligi ham oshib borayotganidan dalolat beradi (24-rasm).

### Iqtisodiyot bo'yicha kutilmalar


Aholining yaqin istiqboldagi iqtisodiy vaziyat bo'yicha ijobiy kutilmalar ustuvorlik qilmoqda. Respondentlarning qariyb uchdan ikki qismi (69 foizi) kelgusi davrda iqtisodiy rivojlanishning jadallashishini kutmoqda. So'rovnoma ishtirokchilarining 22,6 foizi vaziyatni "barqaror" deb baholagan bo'lsa, faqatgina 8,4 foizida salbiy kutilmalar kuzatildi (25-rasm).

O'rta muddatli kutilmalarda mamlakat iqtisodiyoti yaxshilanishiga ishonch bildirganlar ulushi 78 foizni (2025-yil IV chorakda 79 foiz) tashkil etgan bo'lsa, iqtisodiy barqarorlik saqlanib qolinishini kutayotganlar ulushi o'zgarmagan. Iqtisodiy vaziyatga nisbatan biroz salbiy kutilmalar ulushi avvalgi chorakka nisbatan 2 foiz bandga ortib, 6 foizni tashkil etdi (26-rasm).

**25-rasm. Kelgusi 12 oy uchun mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)**



**26-rasm. Kelgusi 3 yilda mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)**



Manba: Markaziy bank kuzatuvlari asosida.

## Iste'mol kayfiyati indeksi

Markaziy bank tomonidan aholining keng soha vakillarini qamrab olgan holda o'tkaziladigan so'rovlar natijalari asosida berib boriladigan iste'mol kayfiyati indeksi<sup>2</sup> (IKI) ni hisoblashda so'rov ishtirokchilarining kelgusidagi daromadlari, xarajatlari, kreditlari va jamg'armalari o'zgarishi bo'yicha tanlangan javob variantlari sonidan kelib chiqib shakllantiriladi.

Bunda respondentlar tomonidan belgilangan javoblar variantlari quyidagi vaznlar orqali umumlashtiriladi va normallashtiriladi:

sezilarli darajada ko'payish/oshish (ijobiy) – 100;

biroz ko'payish/oshish (ijobiy) – 75;

neytral javob (o'zgarishsiz) – 50;

biroz kamayish (biroz salbiy) – 25;

sezilarli darajada kamayish (salbiy) – 0.

Agar hisoblangan subindeks ko'rsatkichi 50 bandga teng bo'lsa, so'rov ishtirokchilari o'rganilayotgan kutilmalari o'zgarmaganini ko'rsatadi. Agar 50 banddan yuqori bo'lsa, kutilmalar oshayotganini bildiradi. Agar subindeks ko'rsatkichi 50 banddan past bo'lsa, kutilmalar pasayganini bildiradi.

Shuningdek, subindeks 100 bandga teng bo'lishi barcha respondentlar yuqori oshishini kutayotganini anglatadi, 0 bandga teng bo'lishi barcha sezilarli kamayishni bildirganini anglatadi.

---

<sup>2</sup> Indeks ko'rsatkichi 0 dan +100 oralig'ida bo'lib, ko'rsatkich +100 ga yaqinlashgani sari iste'mol kayfiyatidagi ijobiylikni ifodalaydi.

© O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026 yil



Hujjatning elektron versiyasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki veb-saytining "Matbuot markazi" bo'limidagi "Sharhlar" kichik bo'limida joylashgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti: [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)

*Ma'lumotlarni hisobga olishining yakuniy sanasi: 2026 yil 15 aprel*

*Mazkur hujjat Pul-kredit siyosati departamenti tomonidan*

*tayyorlangan.*

*O'z taklif va e'tirozlaringizni quyidagi manzilga yuborishingiz mumkin:*

*E-mail: [sinogamov@cbu.uz](mailto:sinogamov@cbu.uz)*

*Tel.: (+998) 71 212-60-22*